

ALISHER NAVOIY VA BOBUR G‘AZALLARIDA ISHQ TALQINI

Abduvaxobova Mashhura Iqboljon qizi

Farg‘ona davlat universiteti

Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili

3- kurs

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur g‘azallarida ishq mavzusining poetik talqini qiyosiy tahlil qilinadi. Navoiyning g‘azallarida ishq ilohiy haqiqatga eltuvchi ruhiy yo‘l sifatida talqin qilinishi, Boburda esa insoniy tuyg‘ular, dard, sog‘inch va hayotiy kechinmalar orqali ifodalanishi yoritiladi. Shuningdek, ikki shoir g‘azallaridagi umumiy badiiy jihatlar — sadoqat, vafodorlik, hijron va oshiqning ruhiy poklanishi — hamda ularning o‘ziga xos farqlari ko‘rsatib beriladi. Maqola Navoiy va Bobur ishq tasviridagi o‘xshashlik va farqlarning turkiy she’riyat taraqqiyotidagi ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so‘zlar. Badiiy mahorat, g‘azal, ishq, ilohiy, ramziy, poetik, ma’naviy, ruhiy kechinma, she’riyat.

Kirish

Turkiy adabiyot tarixida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi alohida o‘rin tutadi. Har ikki shoir o‘z asarlarida inson qalbi, tuyg‘ular olami va ruhiy kechinmalarni badiiy mahorat bilan ifoda etgan. Shu bilan ular o‘z zamonasida ham yuksak e’tiroflarga sababchi bo‘lishgan. G‘azallari markazida ishq mavzusi turadi. Ishq-she’riyatning eng qadimgi va boy mazmunli timsoli bo‘lib, u orqali shoirning dunyoqarashi, ichki kechinmalari namoyon bo‘ladi. Navoiy g‘azallarida ishq ko‘proq ilohiylikka yo‘g‘rilgan, insonning ma’naviy kamolot sari intilishiga xizmat qiluvchi ruhiy kuch sifatida talqin qilinsa, Bobur g‘azallarida ishq hayotiy, insoniy tuyg‘u sifatida, oshiqning chin dardi, sog‘inchi va ehtirosi bilan tasvirlanadi. Ushbu maqolada ikki buyuk shoirning g‘azallaridagi ishq talqini o‘xshashlik va farqlar nuqtai nazaridan o‘rganiladi hamda ularning turkiy she’riyat taraqqiyotiga qo‘shgan badiiy hissasi yoritiladi.

Alisher Navoiy ijodida ishq mavzusi markaziy o‘rin tutadi. Uning g‘azallarida ishq — insonni ma’naviy poklanishga chorlaydigan, ruhni yuksaltiradigan ilohiy kuch sifatida talqin qilinadi. Navoiyning tasavvufiy qarashlariga ko‘ra, haqiqiy oshiq faqat ma’naviy sinovlardan o‘tib, o‘z nafsini yenggandagina haqiqiy ishq maqomiga yetadi. Shoir she’rlarida “sham”, “parvona”, “bulbul”, “gul” kabi timsollar ishq yo‘lida kuyingan oshiqning holatini ifodalaydi.

Navoiy uchun ishq — Haqqa eltuvchi yo‘l, oshiq esa shu yo‘ldagi sodiq yo‘lovchidir. Uning g‘azallarida ishqning maqsadi faqatgina shaxsiy tuyg‘u emas, balki insonni ruhiy kamolotga yetkazadigan ma’naviy jarayon sifatida ko‘rsatiladi.

Bo‘lsa ikimizning yuzi aksi suda paydo,

Ul su ne taraf borsa, ochilg‘ay guli ra‘no.

Zulfung g‘ami ko‘nglumni beling fikriga soldi,

Ko‘rkim, ne taxayyulg‘a soliptur ani savdo.

G‘avg‘o qilur el mahvashlar ko‘yida, lekin.

Mahvashlar ishi qilmoq aning ko‘yida g‘avg‘o.

Ahvolima Farhod ila Majnung‘a taajjub,

Ishq etti xirad ahli qoshida meni rasvo.

Har sori tamoshog‘akim, ul sho‘x qilur azm,

Yo‘q anga tamoshoki, erur elga tamosho.

Davron sanga zulm etsa, qadahlar to'la may ich,
Qon yutsang ayog'lar to'la, davrong'a ne parvo.

Ul sho'xhi maydon aro ko'rganga solur tiyg',
Ko'rmasga solur, yetsa Navoiy sari, amdo.

Mazkur g'azal zohiran qaraganda majoziy ishq tarannumi o'laroq taassurot qoldiradi. Ammo matn bilan yaqindan tanishar ekanmiz, majoz vositasida haqiqiy ishqqa ishora qilinganiga ham guvoh bo'lamiz. Shoir birinchi baytda oshiq va ma'shuqaning yuzini suvdagi aks orqali ramziy bog'laydi — bu ishqning ikki qalbni birlashtiruvchi kuch ekanini bildiradi. Keyingi baytlarda ma'shuqaning zulfi va beli oshiqni hayol dengiziga cho'ktiradi, ishq uni savdoga soladi. Navoiy ishq yo'lini Farhod va Majnun holatiga qiyoslab, oshiqning dardi aqlli odamlar nazarida “rasvolik” bo'lib ko'rinsa ham, aslida bu holat ruhiy komillikka eltuvchi martaba ekanini ko'rsatadi. G'azalda shoir davr zulmi, hijron, iztirob va oshiqlik sinovlari haqida gapirib, ishqning odamni balo-qiyinchiliklarga chidamli qilishi ta'kidlanadi. G'azalning ohirida ma'shuqaning “sho'x” timsoli oshiq qalbini tig'dek og'rituvchi, biroq uni ruhiy poklanishga yetaklovchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Bobur g'azallarida ishq talqini Navoiynikidan farqli tarzda dunyoviy, insoniy va hayotiy tus oladi. Bobur o'z she'riyatida asosan shaxsiy kechinmalarini, dardini va sog'inchlarini samimiy tarzda ifodalaydi. Uning g'azallarida ishq — shoirning real hayoti bilan bog'langan tuyg'u bo'lib, u ayriliq, hijron, sog'inch, vafosizlik kabi hayotiy holatlarda namoyon bo'ladi. Boburda ramziy tasvirlar kamroq bo'lsa-da, tabiat manzaralari (bahor, yomg'ir, shamol, gul) orqali oshiqning ruhiy holati chiroyli aks ettiriladi. Shoirning ichki kechinmalari, muhabbatdagi iztirobi, ba'zan esa quvonchi ham bevosita, sodda va samimiy ohangda beriladi.

Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim,
Ko'nglumdin o'zga mahrami asror topmadim.

Jonimdin o‘zga jonni dilafkor ko‘rmadim,
Ko‘nglum kibi ko‘ngulni giriftor topmadim.
Usruk ko‘ziga toki ko‘ngul bo‘ldi muftalo,
Hargiz bu telbani yana hushyor topmadim.
Nochor furqati bila xo‘y etmisham, netay,
Chun vaslig‘a o‘zumni sazovor topmadim.
Bore boray eshigiga bu navbat, ey ko‘ngul,
Nechaki borib eshigiga bor topmadim.
Bobur, o‘zungni o‘rgatako‘r yorsizki, men
Istab jahonni muncha qilib yor topmadim.

G‘azal ishq va sadoqat mavzusida yozilgan. Bobur o‘zini oshiq sifatida tasvirlab, faqat ma’shuqining sodiqligini qadrlashini, qalbidan boshqa hech kimni sirlariga loyiq topmaganini bildiradi. Shoir ishq yo‘lida ko‘p qiyinchilik va azoblar boshdan kechirgan, lekin ma’shuq vasliga yetish uchun chin sadoqat ko‘rsatadi. G‘azalda ko‘ngul, jon va yor timsollari orqali inson qalbining murakkab, dardli va samimiy holati tasvirlanadi. Bobur ishqni nafaqat shirin tuyg‘u, balki ruhiy yuksalish va insonni poklash kuchi sifatida talqin qiladi. Ushbu g‘azal uning lirikasida chuqur hissiyot, samimiylilik va hayotiylikni aks ettiradi.

Navoiy ishqni ma’naviy va ideal jihatdan yoritadi. Bobur ishqning hayotiy, hissiy va insoniy kechinmalarini ochadi. Shu bilan, ikkala shoir ishq mavzusining boy va turfa talqinini yaratadi, bir-birini to‘ldiradi va ishqning murakkab tabiati o‘quvchiga yetkaziladi. Har ikki shoirning g‘azallarida ishq insonni ruhiy jihatdan o‘zgartiradigan ulug‘ tuyg‘u sifatida tasvirlanadi. Ikkisida ham oshiqning sadoqati, hijron dardi, vafoning yuksak qadri alohida ta’kidlanadi. Navoiy ham, Bobur ham g‘azal janrining klassik an’analariga sodiq qolib, ishq orqali inson qalbining eng nozik jihatlarini ochib berishga intiladi. Shuningdek,

ikkala shoir ijodida ham ishq — insonning ichki olami bilan bevosita bog‘langan yuksak hissiy holatdir. Navoiy ishqni asosan ilohiy, ma’naviy yuksalishga xizmat qiluvchi qudrat darajasiga ko‘taradi; unda oshiq ko‘proq ruhiy poklanishga intiladigan timsoldir. Boburda esa ishq dunyoviy, hayotiy va insoniy tuyg‘u sifatida talqin qilinadi. Shoir ko‘proq o‘z boshidan kechirgan tuyg‘ularni bevosita ifodalaydi, bu esa uning g‘azallarini samimiy va hayotga yaqin qiladi.

Xulosa

Navoiy va Bobur g‘azallari ishq mavzusini o‘ziga xos tarzda talqin qiladi. Navoiy ishqni ideal, ilohiy va ma’naviy yuksalishga eltuvchi kuch sifatida ko‘rsatadi, uning g‘azallarida sof va falsafiy ohang kuchli. Bobur esa ishqni hayotiy, samimiy va inson qalbining murakkab kechinmalari bilan bog‘lab tasvirlaydi; uning g‘azallarida ishq shirin va dardli, sadoqat va hijron bilan uyg‘unlashadi. Shu jihatdan, Navoiy ishqning nazariy, ma’naviy tomonini, Bobur esa hissiy, hayotiy va samimiy kechinmalarini ochib beradi. Ikkalasining g‘azallari bir-birini to‘ldirib, o‘zbek mumtoz lirikasida ishq mavzusining boy va turfa talqinini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev, S. -O‘zbek adabiyoti va g‘azal san’ati. Toshkent: Fan, 2016.
2. Karimov, A.- Alisher Navoiy va Bobur lirikasida ishq. Toshkent: Ilm, 2018.
3. Qodirov, F. -O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent: Sharq, 2012.
4. Sirojiddinov Sh. Yusupova D. Dsvlatov O. - Navoiyshunoslik. Toshkent: Tamaddun, 2019
5. Bobur, Z. M. Bobur g‘azallari. Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2015.